

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETIDA "MEHNAT YARMARKASI"



O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida 2022-yil 12-oktyabr kuni "Mehnat yarmarkasi" bo‘lib o‘tdi. Yarmarkada universitet bakalavriat va magistraturaning turli yo‘nalishlari bo‘yicha ta‘lim olayotgan 2500 dan ziyod talaba ishtirok etdi.

Tadbirda Toshkent shahar hokimligi, Uchtepa tuman prokuraturasi, Uchtepa tuman hokimligi, O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta-maxsus ta‘limi, Xalq ta‘limi, Madaniyat, Maktabgacha ta‘lim vazirliklari, O‘zbekiston milliy axborot agentligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Yozuvchilar uyushmasi, nadavlat ta‘lim muassasalari hamda boshqa tashkilotlar bo‘sh ish o‘rinlari bo‘yicha o‘z takliflari bilan qatnashishdi.

"Mehnat yarmarkasi" natijasida ishlash istagini bildirgan universitet talabalari taklif etilgan bo‘sh ish o‘rinlari haqida batafsil ma‘lumot olish bilan birgalikda ishlash uchun tegishli shartnomalar imzolashga erishdilar.



